

**"QISSASI RABG'UZIY ASARIDA ETNOGRAFIK ELEMENTLAR" TAHLILI**

*Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi*  
**Bobojonova Munisa**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Rabg'uziyning Qissasi Rabg'uziy asarida qo'llanilgan etnografizmlarga oid so'zlar tahlili va ulardagi ma'noviy jihatlar tahlil etiladi va ma'nolari yoritiladi. Asarlardagi talqinlar ularning elementlari tushuntiriladi.

**Kalit so'zlar:** etnografik elementlar, etnografik birliklar, etnografizmga oid frazalar, tahlil, tamoyil, nazariya

**Kirish**

Sharq xalqlari og'zaki ijodini, ayniqsa, rivoyatlarni, avliyo-anbiyolar to'g'risidagi qissalarni chuqur o'rgangan. O'zi ham ko'pgina ibratli hikoyatlar, qissalar yozgan. Turkiy xalqlar adabiyoti tarixida birinchilardan bo'lib nasrda rivoyatlardan hikoyat, hikoyatlardan qissa yaratishni boshlab bergan. Bizgacha "Qisasi Rabg'uziy" (1309—10) asarigina yetib kelgan. Asar musulmon mo'g'ul beklaridan Nosiriddin To'qbug'aning topshirig'i bilan yozilgan. Kitob turkiy tilda, asosan, nasrda, madhiyalar, ba'zi qissalarning xulosalari, lirik kechinmalar va xotima qismi esa nazmda yozilgan. Qur'oni Karimdagi ba'zi lavhalar, islomga oid boshqa kitoblardan va Abu Is'hoq Nishopuriyning "Qisas ul-anbiyo"sidan ayrim faktlar asarga asos qilib olingan. Asar an'anaviy hamd va na't bilan boshlanadi, so'ng uning yozilish sababi, muallif haqida ma'lumot beruvchi qisqa so'zboshi, keyin esa qissalar keladi. Jami 72 qissadan iborat. Mavzu doirasiga ko'ra, asar qissalari juda rang-barang. Olamdagi butun mavjudot egasi bo'lgan Allohni ulug'lash, payg'ambarlar hayotiga doir lavhalarni eslash, kamtarinlik va takabburlik, ota-ona va farzand munosabatlari, erk va adolat mavzulari shular jumlasidandir. Qissalar hajmi turlicha: Mas, Yusuf haqidagi qissa salkam 100 sahifani tashkil qilsa, Lut haqidagi qissa bir necha sahifadagina iborat. Qissalarda real hayot voqealari bilan bog'liq mavzular ham uchraydi. Qissalar bayonida, personajlar tasvirida xalq og'zaki ijodining bevosita ta'siri seziladi. Asarda ma'rifiy-didaktik hikoyatlar ham mavjud (Luqmon hikoyasi va boshqalar), qissalardagi hikoyatlarga dunyoviy ruh ham singdirilgan (Yusuf qissasi va boshqalar). Rabg'uziyning bu asari o'zbek adabiyotida badiiy nasr yodgorligining yetuk namunasi hamda 13—14-asrlar eski o'zbek adabiy tilini o'rganishda asosiy manba sifatida ahamiyat kasb etadi. Qissaning 15-asrga oid qo'lyozmasi Londondagi Britaniya muzeyida, 16-asrda ko'chirilgan nusxasi Sankt-Peterburgda, 19-asrda ko'chirilgan qo'lyozma, shuningdek, bosma nusxalari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. "Qissayi Rabg'uziy" o'zbek so'z san'atining ajoyib obidasi hisoblanadi. Unda anbiyolar-payg'ambarlar hayotidan hikoya qiluvchi

qadimiy sharq qissa va afsonalarini qayta ishlab, manzarali lavhalar, jonli tasvirlar, xiyla pishiqlik, his-hayojon, kechinmalarga boy obrazlar hosil etgan. Asarda e'tiqod va imonga sodiqlik, pok insoniy axloqning badnafslilik, xirsiy hasad, qonxorlik va nohaqliklar ustidan bo'lgan g'alaba tasvirlangan. Rabg'uziy bu ijod mahsuli mazkur mavzu ananasidagi o'ziga xos bosqich bo'ldi. Birinchidan, adib o'zigacha yaratilgan payg'ambarlar haqidagi qissalarni puxta o'rgandi, ularning yutuqlarini umumlashtirdi, rivojlantirdi. Ikkinchidan, salaflari yo'l qo'ygan kamchiliklarni tuzatdi, xato va chalkashliklarga barham berdi. Uchinchidan, oldinlari nabiylar haqidagi qissalar arab va fors tillarida yozilgan bo'lsa, Rabg'uziyning turkiy tilda bitilgan qissalari turkiy xalqlarning bebaho manaviy mulkiga aylandi. "Qissasi Rabg'uziy" ga diniy xarakterdagi bir asar sifatidagina qaramaslik kerak. Chunki asarda diniy ruhga nisbatan inson hayoti, kelajagi va real borliq bilan bog'liq dunyoviy ruh ustun darajadadir. Asar tom ma'nodagi ilhom manbaiga aylanishi mumkin bo'lgan nodir yodgorlikdir. Asarda ma'rifiy-didaktik hikoyatlar ham mavjud (Luqmon hikoyasi va b.), qissalardagi hikoyatlarga dunyoviy ruh ham singdirilgan (Yusuf qissasi va b.). Rabg'uziyning bu asari o'zbek adabiyotida badiiy nasr yodgorligining yetuk namunasi hamda 13—14-asrlar eski o'zbek adabiy tilini o'rganishda asosiy manba sifatida ahamiyat kasb etadi. Qissaning 15-asrga oid qo'lyozmasi Londondagi Britaniya muzeyida, 16-asrda ko'chirilgan nusxasi Sankt-Peterburgda, 19-asrda ko'chirilgan qo'lyozma, shuningdek, bosma nusxalari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

### **Asosiy qism**

Xalqimiz asrlar davomida ko'plab sinov va mashaqqatlarni boshdan kechirgan. Tabiiyki, ularning barchasi millatimiz tarixi, madaniy merosi va ma'naviyatida ozmi-ko'pmi o'z izini qoldirgan. Shu bois xalqimizning o'ziga xos tabiati, turmush tarzi, an'ana va qadriyatlarini haqida gap ketganda, millatimizning murakkab taqdiri, taraqqiyot yo'lini teran o'rgangan holda fikr yuritilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi deb o'ylaymiz. Jumladan, "o'zbek" etnonimining tarixiy asoslari va ma'no-mazmunini aniqlashda ham shunday yondashuv, bizningcha, foydadan xoli bo'lmaydi. Tan olish kerakki, istiqlol havosidan nafas olayotganimizga 17 yil to'layotganiga qaramasdan fanimizda bu masalada hali-hanuz har tomonlama ilmiy asoslangan xulosa shakllangani yo'q. Ma'lumki, xar bir xalqning ilm-fan sohasida qo'lga kiritgan yutuqlarini aks ettiruvchi ko'zgu — uning milliy qomusi. Binobarin, bu masalada ham avvalo "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" ga murojaat etish o'rinli bo'ladi. Ushbu mu'tabar manbaning 10-jildi 488-betida bu haqda quyidagi ma'lumotlar berilgan: "...o'zbek etnonimining kelib chikishi bo'yicha fanda yakdil fikr mavjud emas. Ayrim mualliflar (G.Vamberi, G.Xovars, M.P.Pelo) Dashti Qipchoqda ko'chib yurgan turkmo'g'ul qabilalarining bir qismi o'zlarini erkin tutganliklari sababli "o'zbek", ya'ni "o'z-o'ziga bek" deb atalgan desalar, boshqalar (P.P.Ivanov. A.Yu.Yakubovskiy,

X.Hukhem) ”o‘zbek“ etnonimini Oltin O‘rda xoni O‘zbekxon (XIV asr) nomi bilan bog‘laydi, boshqa yana bir guruh olimlar esa (V.V.Grigoryev, A.A.Semyonov va B.Ahmedovlar) o‘zbek nomi Oq O‘rdada (Dashti Qipchoqning sharqiy qismi) ko‘chib yurgan turk-mo‘g‘ul qabilalariga taalluqli bo‘lgan, degan fikrni bildiradi”. E’tibor bergan bo‘lsangiz, ushbu “ro‘yxat”da Bo‘riboy Ahmedovdan boshqa birorta ham o‘zbek olimining nomini uchratmaysiz. Biz boshdan kechirgan qariyb 150 yillik mustamlakachilik davrini inobatga oladigan bo‘lsak, buning sira taajjublanarli joyi yo‘q. Chunki o‘zbek xalqi tarixini so‘nggi bor “qayta yozish” chor Rusiyasi istilosi bilan boshlanib, qizil imperiya istibdodi avjiga chiqqan yillarda poyoniga yetgan edi. Zulm va zo‘ravonlik hukmronlik qilgan o‘sha mash‘um zamonlarda tariximiz munofiqlarcha buzib va soxtalashtirib talqin etildi-ki, oqibatda biz hamon uning chigalliklari orasida adashib yuribmiz. “O‘zbek” etnonimi haqidagi barcha farazlar Dashti Qipchoq jug‘rofiy hududi va Oltin O‘rda xukmdorlaridan biri bo‘lgan O‘zbekxon shaxsiga daxldor ekanini yuqoridagi misol asosida ko‘rdik. Ushbu taxminlarga ko‘ra, o‘zbek nomi bizning zaminimizga chetdan, ya’ni tarixda Dashti Qipchoq deb atalgan sahroyi o‘lkadan XV—XVI asrlarda kirib kelgan. To‘g‘ri, boshqa yurtlardan ko‘chib kelgan xalq tubjoy axoliga o‘z nomini berishi tarixda ko‘p bor kuzatilgan. Chunonchi, ingliz va fransuz xalqlarining nomi ana shu tariqa yuzaga kelgani ma’lum. Lekin bunday hol bizning tariximizda ko‘rilgan emas va ushbu fikrni ulug‘ shox va olim Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” asariga tayanib isbotlash mumkin. Ma’lumki, Oltin O‘rda davlatining ikki poytaxti bo‘lib, ulardan biri Xorazmdagi Urganch (hozirgi Ko‘hna Urganch) shahri edi. Bu muazzam shaharga tashrif buyurib, To‘rabekxonim ko‘shkida mehmon bo‘lgan arab sayyohi Ibn Battuta uning madaniyat va me’morlik bobida g‘oyat rivojlanganini ta’kidlaydi. Ana shu urganchlik xalfalardan Sayyid ota toshkentlik piri Zangi ota da’vati bilan Oltin O‘rdaga boradi va u yerda galdagi mo‘g‘ul xonining (asl ismi noma’lum) iymon keltirib, islom diniga o‘tishi marosimida qatnashadi hamda unga (an’anaga muvofiq) sulton Muxammad O‘zbekxon nomini beradi. Ana shu tarixiy dalilga asoslanib, aslida o‘zbek degan nom XIV asrda Dashti Qipchoqqa Markaziy Osiyodan borgan, deya xulosa chiqarish mumkin. Xech shubhasiz, shunday bir sharoitda “o‘zbek” etnonimiga doir haqiqatni yuzaga chiqarish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin o‘z vaqtida Bo‘riboy Ahmedov juda to‘g‘ri ta’kidlagandek, bu “masala shu qadar mushkul, jiddiy va nozikki, uni ilmiy jihatdan tahlil etish bir kishi qiladigan ish emas. Buning uchun arab, fors, xitoy va boshqa tillarda yozilgan manbalarni bemalol o‘qiy oladigan tarixchi, yetuk arxeolog va antropolog, yaxshi tilshunos olim, qadimiy xalqlar haqida ularning turish-turmushi, dini, e’tiqodi va boshqa belgilariga qarab ilmiy xulosa chiqara oladigan etnograf, klassik jug‘rofiya ilmini, ayniqsa, toponimikani yaxshi bilgan jug‘rof, xalq og‘zaki ijodini mukammal bilgan folklorchi olimlarning birgalikda, boshqa yumushlarni yig‘ishtirib qo‘yib, ilmiy tadqiqot ishlari bilan

muntazam shug'ullanishi talab qilinadi" (B.Ahmedov. Tarixdan saboqlar. T., "O'qituvchi", 1994, 196-bet). Marhum akademigimiz taklif etgan ushbu ro'yxatga me'morlik bilimdonlarini ham kiritish lozim. Chunki ushbu sohadagi ko'p yillik izlanishlar natijasida shunday xulosaga keldikki, me'moriy obidalar millat o'tmishining yorqin ko'zgusi ekan. Darhaqiqat, har bir bino va inshoot o'zi yaratilgan davr haqida behad ko'p ma'lumot beradi. Qolaversa, me'morlik tadqiqotchisidan tarix ilmini chuqur egallash, o'tmishni teran idrok etish salohiyati talab qilinadi. Shu sababli "Turkiston ahlining qiblai duosi" Xoja Ahmad Yassaviyning (vafoti 1166 yil) xorazmlik ajoyib izdosh shogirdi Hakim ota — Sulaymon Boqirg'oniy (vafoti 1186 yil) tavallud topgan Boqirg'on kenti yaqinidagi rabot-karvonsaroyini tadqiq etish va shu manzil-makon nomini o'ziga nisbat qilib olgan bir ajdodimiz ijodidan bahramand bo'lish asnosida "o'zbek" etnonimiga doir ayrim fikr-mulohazalar yuzaga keldi. Uni biz uchun g'oyat muhim ushbu masalaga doir yana bir ilmiy faraz sifatida o'rtaga tashlashni lozim topdik. XIII asrda Xorazm saltanatining Chingizxon qo'shini tomonidan bosib olinishi o'zbek xalqi tarixining eng fojiali sahifalaridan biridir. Ajdodlarimiz o'sha mudhish davrda beomon qirg'inlar, mislsiz vayronagarchiliklarni boshdan o'tkazgan bo'lsa-da, shunday og'ir sharoitda ham inson aqlini lol qoldiradigan asarlar yaratgan. Bunday buyuk ma'naviy obidalar orasida eng muazzami, shak-shubhasiz, XIII—XIV asrlarda yashagan Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziyning bizgacha yetib kelgan yagona bitigi — "Qisasi Rabg'uziy"dir. Asar muqaddimasida muallif o'zining nasl-nasabi va asarning yozilish tarixi haqida qisqacha ma'lumot beradi, "...bu kitobni tuzgan, toat yo'linda tizgan, ma'siyat yobonin kezgan, oz ozuqlug', ko'p yozuqlug' Rabot o'g'uzining qozisi Burhon o'g'li Nosiruddin" ekanini ma'lum qiladi. Demak, qozizoda adib Raboto'g'uz degan manzilda tavallud topgan va turkiy o'g'uz qavmiga mansub bo'lgan. Nomini tarixga muhrlab ketgan mazkur asarni yozish istagi unda hijriy 650, milodiy 1250 yillarda paydo bo'ladi. Lekin ijodiy niyatni ro'yobga chiqarish yarim asrdan ziyod ortga surilib ketadi. Qadimgi Xorazmning son-sanoqsiz arxeologik yodgorliklari orasidan Raboto'g'uz xarobalari topilganiga, mana, bir necha yil bo'ldi. Lekin bunga qadar vohadagi juda ko'plab qal'a va qo'rg'on qoldiqlarini birma-bir ko'rib chiqish, ular bag'ridan topilgan ashyoviy dalillarni sinchiklab o'rganishga to'g'ri keladi. To'qbug'a beklik qilgan o'sha qal'a -rabot tarixiy-arxeologik yodgorliklar qaydnomasida To'qqal'a nomi bilan zikr qilindi. Arxeolog olim A.Gudkovaning "Turkqal'a" (1964) kitobida keltirilgan ma'lumotga ko'ra, Nukus shahridan shimoli-g'arb tomonga qarab 14 kilometr yurilganda, Amudaryo eski o'zanining (kengligi 200 metrdan ziyod) sharqiy qirg'og'idagi tabiiy do'ngliklar ustida (atrofdagi tekis yerlardan 11 metr balandda) qadimgi ulkan qal'aband xaroba saqlanib qolgan. Uning umumiy sahni 8 gektardan ortiq bo'lgan maydonidan salkam yigirma besh asrlik tarixga ega ashyoviy dalillar topilgan. Ularning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi V asrdan milodiy XIX

asrgacha bo'lgan davrda ushbu manzilda odamlar yashagan. Bu qal'aband shahriston To'qqal'a nomini olgunga qadar qanday atalgani haqida, afsuski, hech qanday ma'lumot saqlanib qolmagan. Arxeologlar asosiy e'tiborni To'qqal'aning ko'hna madaniy qatlamlariga qaratgani bois bizni qiziqtirgan davr — o'rta asrlarga doir ma'lumotlar u qadar ko'p emas. Lekin, shunga qaramay olimlar IX—X asrlarda mazkur manzilda yashagan aholi etnik jihatdan mongoloid guruhiga mansub bo'lganini aniqlagan. Ma'lumki, hozirgi Xorazm aholisi ham aynan shu ko'rinishdagi etnik guruh tarkibiga kiradi. Atoqli tarixshunos akademik Yahyo G'ulomov "Xorazmning sug'orilish tarixi" asarida Amudaryo quyi oqimidagi aholi yashagan yirik manzilgohlarni tilga olar ekan, To'qqal'ani ham aytib o'tgan. Shuningdek, ba'zi tarixiy manbalarda, jumladan, Abulg'oziy Bahodurxon, Munis, Ogahiy asarlarida To'qqal'a atrofi XVI—XIX asrlar davomida dehqonchilik vohasi bo'lgani qayd etilgan. Ammo daryo o'zani qurib qolgan kezlarda aholi nihoyatda qashshoq hayot kechirgani ham ta'kidlangan. Tarixdan ma'lumki, me'moriy inshootlar, xususan, rabot-karvonsaroylar azal-azaldan o'z sohiblari nomi bilan atalib kelgan. Shu ma'noda, Raboto'g'uzni tiklab, obod qilgan To'qbug'abek nomi aholi orasida keyinroq qal'a nomiga aylangan bo'lishi mumkin. To'qbug'abek qal'asi og'zaki nutqda qisqargan holda To'qqal'a deb yuritila boshlagan. To'qqal'a deganda dastlab To'qbug'a beklik qilgan rabot tushunilgan, keyinchalik u to'kin, farovon, boy makon degan ma'noni anglatgan bo'lsa ajab emas. Endi diqqatni ulug' adib yaratgan o'lmas asar tiliga qaratsak. Olimlar "Qisasi Rabg'uziy"ning til xususiyatlari Markaziy Osiyodagi turkiy tillarning barchasi uchun mushtarak ilmiy ahamiyatga ega ekanini e'tirof etsa-da, mantiqan kelib chiqadigan boshqa eng muhim xulosa e'tibordan chetda qolgani ajablanarlidir. Raboto'g'uz farzandi bo'lmish Rabg'uziy, hech shubhasiz, turkiy o'g'uzlar qavmiga mansub. "Qisasi Rabg'uziy" asari esa lisoniy jihatdan boshqa turkiy tillarga nisbatan o'zbek tiliga nihoyatda yaqin, uni aslida o'zbek tilining XIII—XIV asrlardagi o'g'uz lahjasi desak to'g'riroq bo'ladi. E'tibor berib qaralsa, Nosiruddun Burhonuddin Rabg'uziy yashagan makon, u qabul qilgan nisba va nihoyat yaratgan asarning tili ham bizni bir masala — o'g'uzlar masalasiga yetaklayotir. Xo'sh, o'g'uzlar aslida kimlar edi? Tarixiy manbalarda ular turkiylarning eng katta va qudratli qavmi sifatida ta'riflanib kelgan. Turk mulkining hoqon va xonlari ham shu qavmdan, chunonchi, to'qqiz o'g'uz urug'idan chiqqan. O'rxun — Enasoy toshbitiklarida (VII asr) Bilgahoqon tilidan "To'qqiz o'g'uz mening xalqim edi" degan so'zlar muhrlangan. To'qqiz o'g'uz urug'iga mansub hukmdorlar sulolasi O'rta Osiyoda — Xorazm, Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Toshkent sarhadlarida qariyb ming yil hukmronlik qilgani tarixdan ayon. Qadimgi o'g'uzlar bir zamonlar Tinch okeanidan (Xitoydagi Xuanxe daryosi Sariq o'g'uz deb atalgani ma'lum) Afrikadagi Nil daryosi bo'ylarigacha yetib borgan. Bu qavmga asos solgan O'g'uzxon hukmronligi davridayoq Hindiston, Eron, Shom, Misr sari harbiy yurishlar qilingan. Misr davlatini



XIV—XV asrlarda boshqargan tuluniylar sulolasi Samarqanddan qul qilib Arabistonga sotilgan turk o'g'uzlari avlodi ekani o'sha davr solnomalarida qayd etilgan (tulun — to'lin oy degan ma'noni bildiradi). Bu qavm shu qadar katta hududda istiqomat qilganki, hozirda ularning bir tarmog'i — gagauz — ko'k o'g'uzlar G'arbiy Ovrupoda, Dunay daryosi bo'ylarida yashamoqda. O'g'uzlar turkiy qavmning eng yirik ulushini tashkil etgani va saltanat tepasida uning vakillari o'tirgani bo'ismi, aksariyat hollarda turk va o'g'uz istilohi bir ma'noda ham ishlatilavergan. Shu o'rinda o'sha ulkan o'g'uzlar qavmining hozirgi vorislari kimlar, degan savol tug'ilishi tabiiy, albatta. Afsuski, bu masalada ham hiyla chalkashliklar mavjud. Hozirgi tarixnavislik va tilshunoslik fanlarida o'g'uzlar faqat turkmanlardir, degan noto'g'ri tushuncha keng tarqalgan. Turkmanshunoslar tarixiy manbalarga asoslanib, X—XIII asrlarda butun Markaziy Osiyo bo'ylab, ya'ni Yettisuvdan Kaspiygacha bo'lgan bepoyon hududda asosan o'g'uzlar yashagan, deb haqqoniy e'tirof etsa-da, ularning barchasi hozirgi turkman xalqiga mansub, deya mutlaqo yanglish xulosa chiqargan. Garchi biror bir aniq va ishonchli dalil bilan isbotlanmagan bo'lsa-da, Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi, Chimkent, Sayram, hatto Samarqand, Buxoro va Xorazmda ham faqat turkmanlar yashagan, degan fikrlar aytilmoqda. Vaholanki, ushbu hududlarda ilgari ham, hozir ham asosan turkiy o'zbeklar istiqomat qilgani va qilayotgani rad etib bo'lmaz haqiqatdir. Ulug' alloma Abu Rayhon Beruniy yozib qoldirgan ma'lumotlar ham bu boradagi chalkashliklarga barham beradi. Olimning ta'kidlashicha, turkiy aholi orasida dastlab islom dinini qabul qilgan guruhlarni boshqa qavmdoshlardan farqlash maqsadida ma'lum bir davr “turk musulmon bo'ldi” — “turk musulmon” — “turkman” degan atama keng tarqalgan. Modomiki shunday ekan, X—XII asrlarga doir tarixiy manbalarda “turkman” deb tilga olingan aholi aslida turklarning kichik bir qismi ekani ma'lum bo'ladi. Unda, turk-o'g'uzlarning qolgan katta qismining taqdiri nima bo'ldi? Bizningcha, ular keyinchalik tarix sahnasiga o'zbek degan nom bilan chiqqan xalqning aynan o'zi, uning o'zagidir. Chunki ana shu bo'linishlardan keyingi barcha davrlarda o'zbeklar bu mintaqada eng yirik xalq bo'lib kelgan va hozir ham shunday. O'zbek etnogenezi kabi “o'zbek” etnonimi zamirida ham “o'g'uz” so'zi yotgan bo'lishi haqiqatga ko'proq mos keladi. Bu farazni shu bilan ham dalillash mumkinki, Vizantiya solnomalarida kunchiqar tomondan quyundek bosib borgan turkiy o'g'uzlar nomi qisqartirilib “g'uz”, “uz” tarzida kayd etilgan. Ya'ni, “uz” — “o'g'uz” so'zining shunchaki ixchamlashgan shakli, xolos. Bu kalom yana bir sof turkiy So'z — “bek” bilan qo'shib, yangi — “o'zbek” atamasini hosil qilgan. Izohli lug'atlarda “bek” so'zining asosan uchta ma'nosi zikr etiladi: 1) o'tmishda shahar hamda viloyat hokimlariga, shuningdek, boshqa ayrim amaldorlarga berilgan unvon; 2) erkaklar nomining tarkibiy qismi; 3) oila boshlig'iga uning ayoli tomonidan qilinadigan murojaat shakli. E'tibor berilsa, har uchala talqinni ham yagona umumiy ma'no birlashtirib turibdi. Bu — yukori mavke-martaba va shunga munosib hurmat-ehtiram

ma'nosidir. Darhaqiqat, o'g'uzlar nafaqat turkiy qavm, balki qo'shni xalqlar nazarida ham ana shunday e'tiborga loyiq bo'lgan. Shu jihatdan olganda, "o'g'uz-g'uz-o'z" so'zining "bek" so'zi bilan birikishi aslo tasodifiy emas. O'zbek etnogenezi va etnonimini tadqiq etar ekansiz, hali bir masala uzil-kesil hal qilinmasdan turib, yana boshqasi qarshingizda ko'ndalang bo'laveradi. Bu — o'g'uzlarning vatani va uning markazi masalasidir. Ushbu borada bahs boshlashdan oldin mazkur qavm tarixining badiiy ifodasi bo'lgan "O'g'uznoma" dostonlariga qisqacha to'xtalish zarur. Ma'lumki, bu badiiy silsilaga oid ilk ma'lumotlar misrlik olim Abu Bakr ibn Abdullox ibn Oybek ad Davadoriyning 1309 yilda ta'lif etilgan tarixiy asarida uchraydi. Unda aytilishicha, xalifa Xorun ar-Rashid (763-809 yillar) hukmronligi davrida bag'dodlik Jabroil ismli tarjimon "Ulu(g')xon ota Bitikchi so'zi" nomli turkiy dostonni o'rta fors tilidagi tarjima nusxasidan arab tiliga o'g'irgan. Ushbu kitob Eron podshohi Anushirvon Sosoniy (531-579 yillar) kutubxonasida eng nodir bitiklar qatorida saqlangan.[4] "O'g'uznoma"ning XV asrda ko'chirilgan nusxasi qahramonlari — kekxa afsungar avliyo Turuk (Turk) ota, O'g'uz hoqon, ko'k yolli bo'ri va boshqalar bu asar VI asrga va ehtimol undan ham ilgarigi davrlarga mansub "Ulu(g')xon ota Bitikchi so'zi" dostonining shu asrlarga yetib kelgan nusxasi bo'lsa ajab emas, degan farazga asos bo'ladi. Raboto'g'uz — To'qqal'a arxeologik yodgorligi o'zbek adibi Rabg'uziy tavallud topgan zamin sifatida aniqlanishi o'sha manzilga nisbatan alohida ehtirom va e'tibor uyg'otishi shubhasiz. Kelgusi yilda "Qisasi Rabg'uziy" asari Raboto'g'uz begi To'qbug'abekka tuhfa etilganiga 700 yil to'ladi. Shu munosabat bilan To'qqal'a ustiga toshbitik o'rnatilsa, o'zbekning asl tomirini ko'rsatib bergan alloma ruhi shod etilgan bo'lardi. Adib Rabg'uziy o'z qutlug' nisbasi va noyob mumtoz asari orqali tarixda noto'g'ri talqin etilgan o'zbek xalqi etnonimi bilan bog'liq ulkan muammo tilsimiga ochqich — kalit tutqazdi. Kindik qoni tomgan ona yurti bo'lmish Amudaryo quyi oqimi qirg'og'idagi Raboto'g'uzni dunyoga tanitar ekan, ayni vaqtda o'zbekning qadimiy o'q o'zagi o'g'uz ekanini ham mangulikka muhrlab ketdi. Hazrat Rabg'uziy ruhi uchun bundan ham ulug' saodat bo'lishi mumkinmi? Ming ofarin, yoshulli! Mana shunday etnografizmga oid so'zlar beriladi asarda biz bilamizki, etnografizmlar bu qadriyat va an'anaga oid qarashlar hisoblanishidan kelib chiqib yuqoridagi ma'lumotlarni etnografik ma'lumotlar deb olish mumkin.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, "Qisasi Rabg'uziy" asari o'zida din – folklor – adabiyot munosabatini aks ettirgan noyob asarlardandir. Hikoyat va rivoyatlar vositasida kitobxonga ma'naviy-ma'rifiy ozuqa bera oladigan bebaho asardir. Muallif qissalarda xalq og'zaki ijodiga doir turli obrazlardan foydalanib, hikoyat va rivoyatlarni puxta ishlangan kichik badiiy asar darajasiga yetkazgan. Ana shunday obrazlardan biri "pari" obrazi qissa badiiyatida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, adib ba'zi lavhalarda diniy dalillar bilan cheklanmasdan ularni xalq og'zaki ijodi an'analari bilan boyitib, badiiy

talqin etadi. Ayrim qissalar esa diniy voqeadan xoli bo'lgan folklor namunalaridagi demonologik obraz asosida yaratilib, ularni yagona maqsad ostida birlashtirgani ma'lum bo'ladi. Umuman olganda, "pari"obraziga aloqador fikr-tuyg'ular xalq afsonalari, ertak va dostonlar mazmunidan oziqlansa-da, yangi-yangi ma'no qirralarini kasb eta borgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Рабғузий, Носируддин Бурхонуддин. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990.
2. Қуръони Карим. Шайх Муҳаммад Солиҳ Муҳаммад Юсуф таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 1990.
3. «Қисас ул-анбиё». Самарқанд нашр. – Самарқанд: 1904.
4. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. — М.: Наука, 1969.
5. Фольклор и этнография. – Л.: Наука, 1970.
6. Авесто. Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001.
7. Naqqulov I, Zanjirband sher qoshida. – T.: Yulduzcha, 1989.
8. Тоғаева Д. Ўзбек оғзаки насрининг бир жанри ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1990. – 4 сон.
9. Файзиева Д. Ўзбек фольклорида илон инончининг излари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1996. – 4-сон.
10. Қаяумов О. Пари образининг генезисига доир мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 98. – 4 сон.